

---

**Investorning muammo va takliflari o'rganildi**

Qo'shtepa tumanida tashkil etilgan "MR TEX" MCHJga pokistonlik investor Rafix Muhammad Zishan rahbarlik qiladi. Tekstil sohasida faoliyat yuritayogan ushbu korxonada 200 nafar xotin-qizlar faoliyat olib borishmoqda.

Tuman hokimi A.Abdullayev pokistonlik investor Rafix Muhammad Zishanni qabul qilib, uning muammo va takliflarini o'rgandi.

Muloqot davomida mavjud muammolarni bartaraf etish choralari ko'rilib, kelgusida qo'shimcha investisiya kiritish hamda eksport salmog'ini oshirish yuzasidan takliflar bildirildi.

2025-01-27 09:44:43